

1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA ULARNI INTENSIV QO‘LLASH SAMARADORLIGI

Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: nasriddinova57@gmail.com Tel: +99893 899 85 85

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21883997>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi 1-sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalarni tanlash mezonlari hamda ularni intensiv qo‘llash samaradorligi masalalari yoritilgan. Tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, savod o‘rgatish jarayonining o‘ziga xos jihatlari hamda zamonaviy ta‘lim talablaridan kelib chiqib innovatsion texnologiyalarni tanlash mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek, interaktiv va raqamli vositalarni dars jarayoniga maqsadli hamda tizimli integratsiyalash orqali o‘quvchilarning bilish faolligi, o‘qish va yozish ko‘nikmalari hamda dars samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib berilgan. Innovatsion texnologiyalarni intensiv qo‘llashning ta‘lim sifati va natijadorligiga ta‘siri yuzasidan ilmiy-metodik xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, intensiv qo‘llash, ona tili darsi, 1-sinf, boshlang‘ich ta‘lim, raqamli vositalar, interaktiv metodlar, savod o‘rgatish, ta‘lim samaradorligi, o‘quvchilar faolligi, ta‘lim jarayoni, metodik yondashuv.

Abstract. This thesis discusses the criteria for selecting innovative technologies in 1st grade native language lessons and the effectiveness of their intensive use. The study analyzes the criteria for selecting innovative technologies based on the age and psychological characteristics of primary school students, the specifics of the literacy teaching process, and the requirements of modern education. It also reveals the possibilities of increasing students' cognitive activity, reading and writing skills, and lesson effectiveness through the targeted and systematic integration of interactive and digital tools into the lesson process. Scientific and methodological conclusions are presented on the impact of intensive use of innovative technologies on the quality and effectiveness of education.

Keywords: innovative technologies, intensive use, native language lesson, 1st grade, primary education, digital tools, interactive methods, literacy teaching, educational effectiveness, student activity, educational process, methodological approach.

Аннотация. В данной работе рассматриваются критерии отбора инновационных технологий для уроков родного языка в 1 классе и эффективность их интенсивного использования. В исследовании анализируются критерии отбора инновационных технологий с учетом возраста и психологических характеристик учащихся начальной школы, специфики процесса обучения грамоте и требований современного образования. Также выявляются возможности повышения познавательной активности учащихся, навыков чтения и письма, а также эффективности уроков за счет целенаправленной и систематической интеграции интерактивных и цифровых инструментов в учебный процесс. Представлены научно-методологические выводы о влиянии интенсивного использования инновационных технологий на качество и эффективность образования.

Ключевые слова: инновационные технологии, интенсивное использование, урок родного языка, 1 класс, начальное образование, цифровые инструменты, интерактивные методы, обучение грамоте, эффективность обучения, активность учащихся, учебный процесс, методологический подход.

Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat g‘oyat keskin tus olayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz. Bugungi globallashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida ta‘lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda ulardan samarali foydalanish jamiyat taraqqiyoti va ta‘lim sifati oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [1. 2022: B.72].

Bugungi kunda ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida innovatsion yondashuvsiz taraqqiyotga erishish mumkin emasligi ta‘kidlanadi. Bu esa o‘qituvchilarning metodik mahoratini oshirish, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish va turli

yo‘nalishdagi fanlarni, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishni, turli yo‘nalishdagi fanlar qatorida ona tili darslarida ham dolzarb vazifa sifatida belgilamoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har bir davlat o‘z ta‘lim tizimi orqali milliy tilning rivojlanishi va avlodlar davomiyligini ta‘minlashga intiladi. Chunki til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy tajribasi va milliy tafakkurini mujassamlashtiruvchi ijtimoiy hodisadir [2. 2015: B.88].

Barcha fanlarni egallashga eltuvchi yo‘l aynan, ona tili fani bo‘lib, jamiyatga yetishib chiqqan shaxslarning bevosita og‘zaki va yozma nutqi, muloqot madaniyati, teran fikrlashi albatta ona tili fanining muhim vazifalaridan biridir. Ta‘lim tizimimizda ona tili ta‘limini 1-sinf danoq maqsadli o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarning savodxonligini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq 1-sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash zarur. Shu bois innovatsion texnologiyalarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilish lozimdir. Ular quyidagilarni tashkil etadi:

- yosh xususiyatlariga mosligi;
- o‘quv maqsadiga xizmat qilishi;
- foydalanishning soddaligi;
- o‘quvchilarni faollashtirishi;
- o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishi;
- raqamli vositalar bilan integratsiyalash imkoniyatiga ega bo‘lishi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalar nafaqat yordamchi vosita, balki o‘qitish jarayonining asosiy tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish – ya‘ni minimal vaqt ichida maksimal samaraga erishish maqsadida ularni darslarning mazmuniga qarab maqsadli, uzluksiz va faol tarzda tatbiq etish dolzarb pedagogik yondashuv hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish haqida fikr yuritishdan oldin intensiv so‘ziga to‘xtalib o‘tsak.

“Intensiv” so‘zi ilk bora XIX asrning birinchi yarmida rus pedagogik adabiyotida paydo bo‘lgan. Bu so‘z fransuzcha “issiq”, “kuchaygan”, lotincha – “baquvvat”, “jonli”, “tez”, “bo‘ronli”, ispan tilidan – “cho‘zish”, “kattalashtirish”, “kengaytirish” so‘zlaridan olingan. Keyinchalik bu atama pedagogika sohasida intensiv ta‘lim tushunchasi sifatida kirib keldi [3. 2013: B.12].

Bundan biz o‘z tadqiqot ishimizda intensiv ta‘lim yoki intensiv texnologiya emas, innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish iborasi sifatida foydalandik. Innovatsion texnologiyalarni intensiv qo‘llash quyidagicha amalga oshiriladi ya‘ni innovatsion texnologiyalardan ona tili darslari turlariga muvofiq rejalashtirish orqali. Masalan dars turlari:

- Yangi o‘tiladigan mavzular;
- mustahkamlash darslari;
- ijodkorlik soati
- takrorlash darslari

Ushbu dars turlariga asoslanib innovatsion texnologiyalar tanlanib, tasodifdan emas oldindan rejalashtiriladi. Yangi o‘tiladigan mavzular o‘qituvchi bilan jonli muloqot asosida predmetlarga asoslanib, tashkillashtirilishi kerak. Yangi mavzularni mustahkamlash qismida esa operativ qayta aloqa va joriy nazoratni ta‘minlovchi QR-kodli ekspress-tashxis (pickers raqamli vositalariga o‘xshash), mustahkamlash va ijodkorlik darslarida didaktik o‘yinlarga asoslangan multimedia topshiriqlaridan foydalanish, takrorlash darslarida esa “Wordwall”, “Learning apps” kabi zamonaviy raqamli vositalardan tizimli didaktik maqsadlarga mos foydalanilsa innovatsion texnologiyalardan foydalanishning intensivligi ta‘minlanadi. Mazkur raqamli vositalar asosida tayyorlangan mavzulashgan o‘qituvchi uchun tayyor variantiv topshiriqlar resurslari o‘qituvchi vaqtini tejab, dars unumdorligini oshiradi.

Innovatsion texnologiyalarni ona tili darslarida intensiv qo‘llash natijasida:

- o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshadi;
- o‘qish va yozish malakalarini aktiv shakllantiradi;
- dars vaqtidan unumli foydalanishga yordam beradi;
- ta‘lim sifatini yaxshilaydi;
- o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi [2. 2015: B. 102].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalarni tanlashda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, ta'lim maqsadlari hamda didaktik imkoniyatlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan mezonlarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mezonlar asosida tanlangan innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida intensiv, ya'ni maqsadli, tizimli va faol qo'llash o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli vositalarni ona tili darslariga integratsiyalash dars vaqtidan unumli foydalanish, o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini kuchaytirish imkonini beradi. Shu bois boshlang'ich ta'lim amaliyotida innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 464 b.
2. Pedagogika ensiklopediyasi. Vol. 2. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015. – 376 b.
3. Mavlonova, R. A., Rahmonqulova, N. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.